

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA REPERTUAR TANLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI

Yusupova O'ktamxon Xakimjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada musiqa san'atining insonning emotsional va ma'naviy rivojlanishiga ko'rsatadigan chuqur ta'siri o'rganilgan. Musiqa – insoniyatni birlashtiruvchi va ichki kechinmalarini aks ettiruvchi san'at turi sifatida tavsiflanadi. Uning estetik tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida shaxs shakllanishidagi roli, musiqaning bolalikdan boshlab o'sib kelayotgan avlod tarbiyasiga ta'siri yoritilgan. Maqolada qadimiy faylasuflarning, xususan, Platon va Aristotelning musiqa haqidagi fikr-mulohazalari keltirilgan. Musiqaning inson ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishdagi imkoniyatlari, ritm va kuyning kayfiyatni boshqarishdagi roli ham muhokama qilingan. Shuningdek, maqolada musiqa tarbiyasining estetik tarbiya bilan uzviy bog'liqligi, uning o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ta'kidlangan. Maqolaning xulosasi shuki, musiqa san'ati inson hayotida nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy va falsafiy ma'noga ega bo'lib, kelajak avlodning kamolotiga ulkan hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Musiqa, estetik, tarbiya, xonanda, kuy, bolalar, ritm, qadriyatlar, milliy.

Musiqa shunday san'at turiki, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli - tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb atash mumkin.

Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, bog'chada, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir.

Musiqa inson his - tuyg'ularini, orzu - umidlarini, xohish - istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his - tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Musiqa ham fan, ham san'atdir.²² U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga shu fanning turg'un tushunchasi sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san'atdir.

²² Асафьев Б. В. Музыкальная форма как процесс. Л.: Гусуд. Муз. изд., 1973 г., -24стр.

Musiqqa san'ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiy madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Musiqqa inson umrining doimiy yo'ldoshi.

Stendal ning aytishiga ko'ra, musiqqa – san'at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir. «Musiqqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqqa ham voqea- hodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok qilinadi. Musiqqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlarni qamrab ololmaganligi uchun, eng avvalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqqa voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi.»²³ Musiqqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyati murakkab hissiyot bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Musiqqaning kuch - qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlilik, jasurlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Musiqqa «til»i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl – musiqqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg'ulari, tasavvurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqqa «til»ini egallashga, uning mazmun - mohiyatini anglashga, musiqqadagi fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar boyligini o'zlashtirishga keng yo'l ochadi.

Musiqqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri – ta'lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va ahloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to'g'risidagi ta'limotga suyanib, o'quvchilarning ob'ektiv dunyo haqidagi bilimni kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarining tarkib topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his - tuyg'u va fikrlarni rivojlantirish, go'zallikni ko'ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o'quvchilarni go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko'ra bilishga o'rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his - tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, hatti - harakatlariga, xulq - atvoriga ta'sir o'tkazadi. Musiqqa tili

²³ E.Umarov. Estetika T.: "O'zbekiston", 1995 y., -210–bet

barchaga tushunarli va yaqindir. Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to'liqlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'ladi, musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari – ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan.

O'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg'u bilan ta'kidlashgan. Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan. Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o'ta o'ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: «Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmikan, zero, ritm va garmoniya hammadan ko'proq shu vaqtda qalbgacha chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks xolda uning teskarisi bo'lib chiqadi.

Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. «Musiqa kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi.» Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr Al Farobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: «Bu fan (ya'ni musiqa D. O) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir.»

Musiqa inson ruhi va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch. Darvin umrining oxirlarida quvvati hofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib yozadi: «Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish

nasib bo'lganda edi, endigi hayotimda loaqal xaftada bir marta bo'lsa ham, bir necha she'r o'qishni o'zimga qoida qilib olardim». Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo'shilishiga ahloqiy soflik, san'atga va hayotga estetik munosabat - shaxsning to'laqonli kamolga yetishida muhim shartlardir. Bu olijanob maqsadga erishishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan bolalar musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir.

Albatta, musiqa shaxsni shakllantirishning, uning ijobiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Tarbiyaviy ta'sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana shu bilan musiqiy - estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashhur polyak kompozitori K. Shimanovskiy o'zining «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, – uning ikki qarama - qarshi yo'nalishda – yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini — «kerakli ishga yo'naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegirmonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak», – degan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MILLIY MUSIQA–XALQ MADANIYATINING MA'NAVIY KO 'ZGUSI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 8(10), 107-109.
2. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MUSIQA O 'QITUVCHILAR DARSLARDA ILG 'OR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KO 'NIKMALARI. *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 8(9), 90-94.
3. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MUSIQA SAVODXONLIGI TUSHUNCHASI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(36), 220-224.
4. Qodir o'g'li, M. S. (2025). INNOVATION TEXNOLOGIYALAR TUSHUNCHASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(32), 87-91.
5. Qodir o'g'li, M. S. (2024). INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 3(28), 68-71.
6. Qodir o'g'li, M. S. (2025). MILLIY MUSIQA–XALQ MADANIYATINING MA'NAVIY KO 'ZGUSI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 8(10), 107-109.
7. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.

8. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
9. Gaziyeu, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 467-472.
10. Gaziyeu, J. J., & Aliyeva, N. R. (2021). Dmitriy dmitrievich shostakovich life and work. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1181-1185.
11. Joraxanovich, G. J. (2023). Psychological Factors Of Musical Education. *JournalNX*, 9(11), 8-10.
12. Botirkhanovich, S. B. (2024). The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 19-22.
13. Shokirkhonov, B. (2026, February). DEVELOPMENT OF STUDENTS'PERFORMING AND MUSICAL ABILITIES THROUGH INSTRUMENTS. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 77-79).
14. Botirxonovich, S. B. (2025). MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(7), 139-150.
15. Toshmatov, G. U. O. (2026). Musiqa ta'limi jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 7(2), 195-201.
16. Тошматов, Г., & Турдалиева, О. (2023). ТАЛАБАЛАРНИ МУСТАҚИЛ ИШЛАШГА ҚИЗИҚТИРИШ ОМИЛЛАРИ. Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований, 3(6), 162-166.
17. Olimjonovich, T. G., & Komiljanovna, D. G. (2022). The Importance of the Festival “East Songs” in the Introduction and Development of National Classical Music of the Peoples of the East. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(6), 195-199.
18. Abduraimov, S. (2024). METHODS OF USING PRACTICAL METHODS IN MUSIC CULTURE LESSONS IN HIGH SCHOOLS. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(6), 22-25.
19. Abduraimov, S. Z. (2024). MUSIQA TO ‘GARAKLARI ASOSIDA O ‘QUVCHILARDA MILLIY RUHIYAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 44-51.
20. Erdonov, S. B., Maxmudov, A. V., Abduraimov, O. S., Allamurotov, A. L., Mavlanov, B. J., & Mamatkasimov, O. T. (2023). On Reserves of Hippophae rhamnoides L. Fruit on the Territory of the Zarafshan National Nature Park of Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 14, 946-954.
21. Asrakulova, A. (2025). ECONOMIC VIEWS OF ABU NASR FORABI. *Инновационные исследования в науке*, 4(2), 65-68.
22. Nabieva, A. A. (2025). ECONOMIC THOUGHTS OF YUSUF KHOS KHOJIB. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 3(2), 212-214.
23. Asrakulova, A. (2025, February). HISTORICAL-PHILOSOPHICAL AND PUBLIC ADMINISTRATION ISSUES IN NIZAMULMULK'S “SIYOSATNOMA”. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 4, No. 2, pp. 85-88).
24. Jurayeva, G. (2025). TALABALARNING O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARIDA IROCHILIK MAHORATLARINI OSHIRISHDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARINING O'RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 535538.

25. Jurayeva, G. (2024). MUSIQA FANIDA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal*, 1(1).
26. Jo'Rayeva, G. Z. Q. (2026). STEM yondashuvi asosida musiqa nazariyasi ta'limini rivojlantirish yo'llari. *Science and Education*, 7(2), 169-174.
27. Akhmedov, B. (2026, February). THE ROLE OF MUSIC IN THE FORMATION OF PERSONALITY. In International Conference on Social Sciences & Humanities (Vol. 2, No. 2, pp. 72-76).
28. Akhmedov, B. (2026, February). TECHNICAL AND EXPRESSIVE ASPECTS OF THE CONDUCTING APPARATUS. In International Conference on Social Sciences & Humanities (Vol. 2, No. 2, pp. 68-71).
29. Ahmedov, B. S. (2026). Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa tinglash jarayonining metodik asoslari. *Science and Education*, 7(2), 182-187.
30. Tajiboyev, E. (2025). O 'ZBEK MILLIY QADRIYATLARINING TARIXIY MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O'RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3).
31. Tajiboev, E. (2025). ORGANIZATION OF AN OUT-OF-CLASS MUSIC CLUB IN COMPREHENSIVE SECONDARY SCHOOLS. *Развитие и инновации в науке*, 4(2), 13-16
32. Tajiboyev, E. M. (2026). Scientific and pedagogical foundations of developing the skills of listening to national music in higher education system. *Science and Education*, 7(1), 1038-1043.
33. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). O 'quvchilarning STEAM ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi. *Science and Education*, 7(2), 157-161.
34. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqiy mashg'ulotlar orqali talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. *Science and Education*, 7(3), 388-391.
35. Usmonjanova, G. A. Q. (2026). Musiqa ta'limida STEM texnologiyalari va milliy musiqa integratsiyasi. *Science and Education*, 7(3), 392-395.
36. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarida ritmik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari. *Science and Education*, 7(1), 960-965.
37. Odilova, G. (2025). MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR BILAN ISHLASHDA MULOQOT TEXNOLOGIYASIDA. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 367-370.
38. Odilova, G. O. (2026). Musiqa ta'limi orqali bolaga emotsional yondashish tendensiyalari. *Science and Education*, 7(2), 162-168.
39. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
40. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
41. Joraxanovich, G. J. (2025). XIX ASR OHIRI XX ASR BOSHLARIDA YEVROPADA MUSIQA PSIXOLOGIYASI RIVOJLANISHI. *Научный Импульс*, 4(37), 157-161.
42. Muhammadjon o'g, O. R. A. (2025, December). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARI KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATION METODIKASI. In

Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus (Vol. 1, No. 1, pp. 1156-1159).

43. Muhammadjon o‘g, O. R. A. (2025). MUSIQA TA’LIMINI BARCHA TALABALAR UCHUN INKLYUZIV TARTIBDA TASHKIL ETISH. “Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 1(2), 3-9.